

Xatirchi tumanida tug'ilganman. Ikki akam va singlim bor edi. Maktabga olti yoshimda bordim. Muallimlar hali kichkinasan, kelgusi yil kelasan, desalar rosa yig'laganman, ahvolimni ko'rib mayli, o'qiyversin, deyishgan.

Har bir harf, kitob menga mo'v'ijiza kabi tuyulardi. Sherlarni jonu dilim bilan yod olardim. Otam mulla Bobomurodga yod olganlarimni aytib berardim. Otam balli qizim, deb meni rag'batlantirib turardilar.

ВЂ“ Dadajon, faqat alo baholarga o'qisam, meni o'qishga qo'yasizmi? ВЂ“ deb so'rardim.

ВЂ“ Ha, qizim, Toshkentga o'qishga borasan, katta do'xtir bo'lasan, ВЂ“ derdilar.

Biz ilk ertaklarni sandal atrofida ko'sak chuvib, uzo-oq tunlarda dadamdan eshitganmiz. O'sha paytlarda har bir xonadonga dekabr oylarida hatto, qor, yomg'ir ostida ho'l bo'lgan ko'saklarni tashlab ketishardi. Ertalabgacha paxtasini chuvib qo'yishimiz shart edi.

Akalarim va men ertak eshishga qiziqib, ko'sak chuvirdik. "Chor darveshni ham ilk bor dadamdan eshitganmiz. Navoiy va Fuzuliy g'azallarini ham aytib berardilar. Dadam Buxoro madrasasida tahsil ko'rgan, bilimdon kishi edi. Arab imlosida bitilgan ko'p kitoblari bo'lardi. O'sha paytlar u kitoblarning qadriga yetmagan ekanmiz.

O'n to'rt yoshimda otam dunyodan o'tdi. Hammamizga onajonim Fotima Qosimboy qizi va katta akam Murodulla bosh bo'lib qoldilar. Akam juda madaniyatli, o'qimishli kishi edi. Avval o'qituvchi, so'ngra rahbarlik ishlarida ishlagan. Maktabda bizga kimyodan dars bergan.

"Nega suvsiz saholarda ham tikan o'saveradi? deya to'satdan savol berib qoldi bir kun muallim akam. Biz jim edik.

ВЂ“ Negaki, uning tomiri juda uzun bo'ladi, suv izlab daryolar qadar ketaveradi. Buning nomini HAYoT UChUN KURASH deydilar. Sizlar ham orzularingiz yo'lida tinimsiz kurashdan erinmanglar, ВЂ“ deya o'zi javob berdi akam.

Biz o'quvchilar sehrlangan kabi jim o'tirardik.

Har gal kurashlarga duch kelsam ham otam, ham akam, ham o'qituvchim bo'lgan akajonimning shu gaplari yodimga tushadi.

Maktabda sherlar yozib, tadbirlarda o'qib berib, Xatirchi tumanidagi "Yangi hayot gazetasida ilk sherlarim chop etilib qolgan edi.

Maktabni oltin medal bilan bitirdim. O'sha kunlarda enamdan, yangamdan tez-tez meni akam o'qishga qo'yarmikin, deb so'rardim.

Chuniki akajonim o'qituvchilik maoshi bilan katta oilani tebratardi. Kichik akam Toshkentda talaba edi, uni ham o'qitardi. Bizga

hech qachon ovozlarni balandlatib gapirmas edilar. Shunday bo'lsa ham salobatlari bosib, cho'chib turardik. Maktabda ham

barcha o'quvchilar hurmat qilardi.

"Xosiyat hujjatlarini tayyorlasin, Toshkentga ketamiz", ВЂ“ degan kunlari yuragimga olov tutashdi. Shirin orzularga g'arq bo'lib

tong qadar uyquq kelmadi. Mening yuragimni sezgan kabi ko'kda chaqmoqlar chaqdi.

Boshimni yuvdim, yangam sochlarimni maydalab o'rib qo'ydi. Qattiqroq o'rgin, u yoqda kim o'rib qo'yadi, dedi onajonim ko'zlari

namlanib. Yangam bisotimizdagi yagona bir kiyimlik shtapeldan menga yangi kuyalak tikib berdi. Akam talabalik paytida ishlatgan

katta chamadonga kitoblar va ko'ylakni joyladik. Yangam katta yo'lgacha kuzatib chiqib, ortimdan yig'lab qoldi...

Yo'lda yurak yutib so'radim:

ВЂ“ Aka, qaysi o'qishga topshiraman?

ВЂ“ Toshkent Davlat Pedagogika institutining matematika fakultetiga.

ВЂ“ Adabiyotga emasmi?

ВЂ“ Istedodi bor odam boshqa kasbda bo'lsa ham yoza oladi. Qishlog'imizda matematika o'qituvchilari kam.

Akamning so'zi oilamizda hammamiz uchun qonun edi. Chindan avvalo istedad zarur ekan. Talabalik baxtiga muvassar bo'ldim.

Institutning "Sovet pedagogi degan gazetasida sherim bosildi:

Yonib-yonib yashasam deyman,

Uchqun sochib, shula taratsam.

Yonib qo'ngan uchqunlarimdan,

O'zga qalbdan gulxan yaratsam.

Kul bo'lsam ham roziman keyin,

Faqat-faqat qola olsa bas.

Minglab otash, pok yuraklarda

O'zim yoqa olgan ehtiros...

Ikkinchi kursga o'tib, o'qishimni sirtqi bo'limga ko'chirib, qishloqqa qaytdim. O'zim o'qigan 14-maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlay boshlaganimda o'n yetti yoshda edim. Mashqlarimni o'quvchilarimga o'qib berardim. Ular bilan qo'shilib orzularga berildim. O'sha ilk o'quvchilarim bilan hamon bir-birimizni eslab yuramiz.

Bir kuni hamqishlog'im, filologiya fanlari doktori, professor To'xtamurod Boboev (go'rlari nurga to'lsin) Toshkentdan qishloqqa

keldi. Qishloq ahli u kishi bilan faxrlanardi. Akam domlani mehmonga chaqirdi. Daftariimni domlaga ko'rsatsam maylimi, deb

so'radim akamdan. U kishi rozi bo'ldi. Ketar chog'larini poylab darvozada turdim. Uyala-uyala salom berib, daftariimni qo'llariga

tutqazdim. Domla men bilan so'rashdi, akam kulimsirab turardi. Men o'qib ko'raman, dedi, domla. Xudoyjonim-ay, o'qib ko'rib

nima derkinlar deb yuragim dukkilab qolaverdim.. Oradan bir necha kun o'tib kolxoz idorasidan xabar keldi, domla qo'ng'iroq

qildilar, Toshkentga borar ekansiz deb. Uydan ruxsat tegib, uchiblar bordim. Domlani topib oldim. U kishi meni "O'qituvchilar

gazetasining muharriri Sh. Maqsudovga olib kirdi. Muharrir daftariimni o'qib, yaxshi, gazetada chiqaramiz, suratga tushib, berib

keting, dedilar.

To'xtamurod Boboev Yozuvchilar uyushmasiga olib bordi. Normurod Narzullaev bilan kursdosh ekan. Ular maslahatlashib meni

Oydin Hojiev bilan tanishtirdilar. Oydin opa mehr bilan kutib oldi, daftariimni olib qoldi. Tez orada "Guliston", "Sharq yulduzi"

jurnallarida, "O'qituvchilar gazetasida, "O'zbekiston madaniyati gazetasida sherlarim bosildi. Dunyolarga sig'may qoldim.

Birinchi to'plamimga ham Oydin Hojievga muharrirlik qildi. Qachon Toshkentga kelsam, eng avvalo Oydin opanikiga kelib,

ularning maslahatlarini oladigan bo'ldim.

Yozuvchilar uyushmasi azosi bo'lish uchun kamida ikkita to'plam nashr qilinishi talab etilardi. Samarqandda uyushmaning

ko'chma kotibiyati bo'ldi. Men ham ariza topshirdim. Shoir, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov so'z olib:

ВЂ“ Men suyib gul uzsam emasman jallod,

Men uzmagani gullar qilsinlar faryod,

ВЂ“ degan ikki satr sheri uchun Xosiyat Bobomurodovani uyushma azoligiga qabul qilishlaringizni so'rayman, deb taklif

kiritedilar. Bu ishonch va mardlik oldida hayajonlanib qoldim.

This is not registered version of TotalDocConverter

Ustozlarimning og'atlarini, qat'iy to'plamiga nashr qilganlarim: bag'rikenglik, fidoyilik, maqsad yo'lida qat'iy harakat qilish va istedadli yoshlardan yordamingni ayamaslikdir.

\* \* \*

Shu paytgacha "Daryodan qatra, "Qalb titrog'i, "Samarqandga maktublar, "Men uzgan gullar, "Murod qasri, "Jonimning egasi, "Vatan yagonadir, "To'ylar muborak nomli sheriylarim, "Bola ko'targan ayol nomli drama, "Mehr, "Hayqiriq dostonlarim va "Qizilqum malikalari, "Samarqand sanamlari, "Qirq yigit qissasi, "Sahrodagi jannat nomli publitsistik kitoblarim nashrdan chiqdi. Ularning umumiy adadi yetmish ming.

\* \* \*

Adabiyotsiz hayot b' " ertaklari yo'q bolalik, orzulari yo'q yoshlik b' " umidlari so'ngan keksalikdir. Qo'shiqlari yo'q zulumotdir. O'tmishi, buguni, kelajagi yo'q tarixdir. Yovvoyi hayotdir. Inson kimligini anglamog'i uchun albatta ADABIYOT KERAK!

\* \* \*

Bozor adabiyoti adabiyot emas. Bugungi eng go'zal quvonchlarimizni, iztiroblarimizni nafis shakllarda kelajakka yetkazib beradigan so'z kerak deb o'ylayman. Qolganlari o'z-o'zidan yo'qolsa kerak. Inson tanasini mahv etadigan, vahimaga to'la bayonlar emas, inson ruhiga kuch bag'ishlaydigan asarlar kerak.

\* \* \*

Ikki o'g'il, ikki qiz berdi yaratgan Egam. Keragini oldi. Men suygan gulni bag'rimdan oldi. Bolalarimning hammasi adabiyotni tushunishadi, ammo turli kasb egalari. Nabiralarim mashq qilib turishadi. Ammo hali bu haqda gapirishga erta.

\* \* \*

Butun umrimni parvona kabi SO'Zga urib, SO'Z izlab o'tkazibman. Quvonchlarimdan, g'amlarimdan so'z teribman. Bilmadim, men so'zniki bo'ldimmi, yo so'z meniki bo'ldimi? Xato qildimmi, to'g'ri yo'l tanladimmi...